

RADIKALIZMGA QARSHI KURASHISHDA IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH

Durdona Sultonova

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, "Islomshunoslik" mutaxassisligi, 1-kurs
magistri; asadullayevad02@gmail.com +998974030056*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zlarining botil tushuncha va g'oyalari bilan dunyo hamjamiyatida tinchlik va barqarorlikka tahdid solib kelayotgan, g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda islom dinini o'zlariga niqob qilib olgan ekstremistik tashkilot, soxta salafiylik oqimining ilgari surayotgan ahli sunna val jamoa qarashlariga xilof, ijtimoiy hayotda xavflilik darajasi yuqori bo'lgan ba'zi qarashlari, ular faoliyatining jamiyat hayotida keltirib chiqarayotgan tahdidlari, ular ortidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararli oqibatlar haqida fikrlar beriladi.*

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda diniy ilmlarni o'rganish, ularni to'g'ri talqin qilish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida islom dini va unga bog'liq ilmlarni o'rganishga bo'lgan sa'y-harakatlar tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Jahon ilmiy tadqiqot markazlarida asl manbalarni o'rganish va ularni tahlil qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu kabi tadqiqotlar dinning ma'no-mazmuni, muqaddas kitobini va tafsirini, nozil bo'lish sabablarini aniq bilmay, unga noto'g'ri yondashish natijasida islomga e'tiqod qiluvchilar orasida ixtilof, qarama-qarshilik kabi salbiy holatlar yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan.

Bundan tashqari, bugungi jamiyatning modernizatsiyalashuvi sharoitida hamda xalqaro yoki mintaqaviy miqyosda yuzaga kelayotgan muammoli vaziyat va mojarolarning mavjudligi holatida ekstremizm, radikalizm va terrorizm singari buzg'unchi mafkuralarga qarshi kurashish masalasi kun tartibidagi dolzarb mavzular sirasiga kirmoqda. Bunga ekstremistik va radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolayotgan insonlarning aksarini yoshlar tashkil qilayotgani va ularning son jihatdan ortib borayotganini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Muqaddas dinimizda qoralangan, qadriyatlarimizga zid bo'lgan va an'analarimiz qabul qilmaydigan radikalizm, ekstremizm va terrorizm kabi illatlardan yoshlarimizni asrash, ularning tarqalishiga xizmat qilayotgan har qanday faoliyatga chek qo'yish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash, bu borada milliy va xalqaro tajribalardan foydalanish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Xususan, Yangi O'zbekiston tomonidan tashkil qilingan bir qancha muhim uchrashuvlarda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida radikalizm va ekstremizm g'oyalari ustun qilib olgan soxta salafiyergashishni, fikrlarining tarqalishini oldini olishga qaratilgan oliy darajadagi hujjatlarni qabul qilish orqali belgilanib berilganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, radikal g'oyalarni targ'ib qilayotgan "soxta salafiy"ga qarshi kurasha olish uchun immunitet hosil qilish muhim omillardan hisoblanib qoldi. Aslida "salafiy" so'zining asl mohiyati nima edi, nima uchun bu so'zga "soxta" so'zi qo'shib ishlatila boshlandi, kabi savollar tug'ilishi tabiiy.

Islomda “salaf” deganda, hadislarga ko’ra, Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam zamonlarida hamda undan keyingi ikki asrda yashagan musulmonlar tushuniladi. Hozirgi globalshuv jarayonida esa, ilm olmay, o’ta radikal holatda “salafi solihlarga ergashish” kabi g’oyani niqob ostiga olib, o’z domiga yoshlarni qo’shib olishga urinishlar qilayotganlar ko’payib bormoqda. Ular muqaddas manbaalarda targ’ib etilgan ko’plab amallarni o’ylab topilgan, bid’at deya, o’zining kerakmas g’oyalarini singdirmoqda. Jumladan, har qanday yangilikni inkor etish, tasavvuf ilmini aslo tan olmaslik, shifoatni inkor etish hamda o’zlariga ergashmaganlarni “kofir” deya e’lon qilish kabilar. Bularning natijasida esa, asl sof ilmni egallamay, ularga ergashoyotganlar hech qanday shifoatning foydasi yo’q deya, muqaddas ziyoratgohlarni vayron qilmoqdalar, tasavvuf kabi islom ilmi bo’lgan ilmni rad etmoqdalar. Nahotki shu kabi toifa vakillari “islom” so’zining o’ziyoq tinchlikka chaqirishini, vayronagarchilik hamda buzg’unchilikka qarshi ekanini anglamaydilar?!

Abu Hurayra r.a.dan rivoyat qilingan hadisga ko’ra: “ Kim bir insonni kofir deb chaqirsa yoki Allohning dushmani desa, u kishi bu aytganidek bo’lmasa, o’zi kofir bo’ladi”. Hadisdan ko’rinib turibdiki, sof aqida egasi hech qachon bilib-bilmay birgina harakatning o’zidanoq boshqa bir birodarini “kofir” demaydi. Agar u adashsa, unga yordam qo’lini cho’zadi, bor ilmi bilan uni davolashga kirishadi. Mana shu, chin musulmonning vazifasidir.

Hozirgi kunda nafaqat dunyo miqyosida, balki O’zbekiston hududida ham ayni shu kabi g’oyalarga ko’r-ko’rona ergashmaslik, yoshlarni ma’naviy qoloq bo’lmaslik, soxta salafiylarning tahdidiga qarshi kurashish uchun ko’plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2023-yil 28-fevraldagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturining 82-maqsadi “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish” deb nomlandi. Ta’kidlash joizki, mazkur yo’nalish doirasida yosh avlodda ekstremizmga qarshi kurashishda qat’iy va mustahkam immunitetni shakllantirish yuzasidan tadbirlarni tashkil etish vazifasi manfaatdor idoralar zimmasiga yuklatildi. Bularning amaliy ifodasi sifatida “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida radikal g’oyalar ta’siriga tushgan shaxslar bilan kommunikativ harakatlar, suhbatlar, diniy munozara va ko’rsatmalar, tajovuzkor xatti-harakatlarning sababi deb qaralgan masalalar bo’yicha o’zaro suhbatlar, psixolog va boshqa mutaxassislarining tavsiya va ko’rsatmalari kiritildi. Bu kabi faoliyatlar yurtimiz aholisi, xususan, biz kabi yoshlar va kelajak avlodlarni radikal qarashlardan har tomonlama asrash uchun xizmat qiladi. Bugungi tahlikali zamonda Vatan tinchligini asrash, uni har tomonlama rivojlanishi uchun xalq bor imkoniyatini safarbar etishi kerak.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g’oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga

joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda va biz borada doimo kerakli ishlarni bajarishga harakat qilamiz".

Xulosa qilib aytganda, har qanday buzg'unchilik, ilmga qarshilikka chaqiruvchi radikal g'oyalardan hamda tahdidlardan ogoh bo'lishimiz kerak. Islom hayotning har bir jabhasida muomala, yurish-turish, kiyinish hatto eng kichik masalalarida ham to'g'rilikka va mo'tadillik chaqirishini yoddan chiqarmaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Jaholatga qarshi ma'rifat": (o'quv qo'llanma) / J.Karimov . O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot birlashmasi Toshkent-2021, -212B.
2. "Qirq hadis hikmati" sharh/Imom Navaviy - Toshkent: "Qamar media"MCHJ nashriyoti, 2021.
3. "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari": O'quv qo'llanma/ - Toshkent, "Movarounnahr" nashriyoti, - 2026. -224 B.
4. "Qur'on ilmlari" - Toshkent: Hilol-Nashr, 2021.
5. "Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyshmalar" / K. Shermuhammedov, J. Karimov - Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020.
6. "Salafiy"larga ilmiy raddiyalar / Botirjon Tojiboyev, Yunusxon Mamarasulov. - Toshkent: Azon kitoblari, 2021. -180 B.